



Daromad solig'i qaytariladi

2-betda o'qing



Mudir ishiga tiklandi

4-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
4-IYUL
SESHANBA

№ 26 (1386)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz telegram.me/hudud24official/ facebook.com/hudud24official/



GRUZIYA YURIDIK TA'LIMI BILAN TANISHUV



2023-yilning 23-24-iyun kunlari Batumi shahrida (Gruziya) yuridik ta'limning 30 yiliga bag'ishlangan "Zamonaviy ommaviy huquq muammolari" Xalqaro ommaviy huquq jamiyatining (ICON+S Georgia) birinchi har yillik konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Tadbir dasturidan yalpi majlis hamda zamonaviy xususiy va ommaviy huquqning dolzarb masalalariga bag'ishlangan 30 ga yaqin muhokama sessiyalari o'rin olgan.

"Xususiy va ommaviy huquqning fanlararo muammolari" mavzusidagi muhokama sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Toshkent davlat yuridik universiteti vakillari ma'ruzachi sifatida ishtirok etdi.

Anjuman davomida "Huquq va ijtimoiy fanlar" fakulteti vakillari bilan fikr almashildi. Ushbu fakultet 2019-yilda yuridik fakultet va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetini birlashtirish orqali tashkil etilgan.

Uchrashuvda gruziyalik hamkasblarga O'zbekistondagi yuridik ta'lim tizimi, Toshkent davlat yuridik universiteti faoliyati va yutuqlari, shuningdek, huquqiy ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari haqida ma'lumot berildi.



5-betda o'qing

Xonandaning muxlislarga kiyim uloqtirishi madaniyatdanmi?

... Sahnalarni to'ldirgan yoshlarni sanab, sanog'iga yetish qiyin. Yosh xonandalarning albomlaridan joy olayotgan, internet tarmoqlarini bosib ketgan maza, bemaza qo'shiqlar haqida hech kim gapirmay qo'ydi.



6-betda o'qing

Tovlamachi bloger jazoga tortildi



8-betda o'qing


Unutilmas dars

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

**DAROMAD SOLIG'I
QAYTARILADI**

2024-YIL 1-iyulgacha issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko'p bo'lgan tadbirkorlar tomonidan ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilinganda tadbirkorlarga qaytarib berish tartibi joriy etiladi:

- ☑ har bir 5 sotix yer maydoni uchun oyiga kamida 1 nafar ishchining bandligini ta'minlash;
- ☑ har bir ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadni mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan (980 ming so'm) miqdorda belgilash;
- ☑ issiqxonaga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan issiqxona faoliyati bo'yicha olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etishi.

**EKSPORT QILISHDA
XALQARO POCHTA
VA KURYERLIK
XARAJATLARINING BIR
QISMI QOPLAB BERILADI**

Qonunchilikka ko'ra:

- ☑ hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari sifatida jo'natish xarajatlarining 50 foizi, biroq mahsulot eksport qiymatining (jo'natish xarajatsiz) 50 foizidan ortiq bo'lmagan qismi qoplab beriladi;
- ☑ davlat mulki bo'lgan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarini hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanish uchun faqat Milliy katalog va Reyestrda kiritilgan hunarmandlarga elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berish tartibi joriy etiladi.

**AYRIM NORMATIV-
HUQUQIY HUJJATLAR
LOYIHALARINI ISHLAB
CHIQUISH TAQIQLANADI**

Jahon savdo tashkiloti qoida va me'yoriylik muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqiqlanadi.

**"JAMOATCHILIK
EKOLOGIYA
NAZORATCHISI" TIZIMI
JORIY QILINADI**

Quyidagilar joriy etiladi:

- ☑ "Jamoatchilik ekologiya nazoratchisi" tizimi joriy qilinadi;
- ☑ chiqindi poligonlarini xususiy lashtirish taqiqlanadi;
- ☑ "Chiqindilarni ommaviy yig'ish" (O'zPlogging) umummilliy harakati tashkil etiladi;
- ☑ qattiq maishiy chiqindilarni to'plash, olib chiqib ketish bo'yicha aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun vujudga kelgan qarzdorlikni majburiy tartibda undirish uchun sudga da'vo arizalari sanitar tozalash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan kiritiladi.

**"YASHIL ENERGIYA"
SERTIFIKATINI BERISH
BOSHLANADI**

Elektrning qayta tiklanuvchi manbalar asosida ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi "yashil energiya" sertifikat tizimi "O'zbekgidroenergo" AJdagi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr uchun joriy etiladi.

**NODAVLAT FUTBOL
MUASSASALARIGA FUTBOL
ASSOTSIATSIYASI A'ZOSI
BO'LISH TALABI QO'YILADI**

- ☑ nodavlat futbol muassasalari uchun O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi a'zosi bo'lishi talabi o'rnatiladi;
- ☑ O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan nodavlat futbol muassasalarining reytingi yuritiladi.

**AKSIZ MARKASI
YOPISTIRILMAYDI**

Qonunchilikka ko'ra, ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari aksiz markalari bilan markalanmaydi.

**"SHAFFOF QURILISH"
TIZIMI ORQALI TUZILADI**

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan elektr energiya-si hamda tabiiy gazni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar elektr va gaz ta'minoti korxonalarining dasturiy ta'minoti yoxud "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali tuziladi.

Ayrim tezkor-qidiruvlarda ekspres tekshirish texnik vositalari o'sha joyning o'zida qo'llaniladi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar quyidagi holatlarda:

- ☑ giyohvandlik vositalarining no-qonuniy muomalasi bilan bog'liq holatni qayd etishda aniqlangan modda (buyum)ning giyohvand vositasiga taalluqli ekanligiga shubha paydo bo'lganda;
- ☑ aniqlangan modda (buyum)ni

giyohvandlik vositalarining qaysi turiga mansubligi bo'yicha savol tug'ilganda;

- ☑ giyohvandlik vositalarining yangi turlari aniqlanganda;
- ☑ tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda aniqlangan valyuta namunasi qalbaki ekanligiga shubha paydo bo'lganda;
- ☑ tezkor-qidiruv tadbirlari davomiyligini ta'minlash zarurati yuzaga kelganda, tezkorlikni amalga oshirish hamda tegishli vaqtni tejash maqsadida mazkur modda (buyum) yoki valyuta namunalari ular aniqlangan joyning o'zida yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar binosida ekspres tekshirish texnik vositalari yordamida tekshiradi.

**BA'ZI TURDAGI DORILAR
SERTIFIKATLASHTIRILMAYDI**

Referent narxlar qayd etilmagan yoki qayd etilgan narxdan yuqori bo'lgan dori vositalarini sertifikatlashtirish taqiqlanadi.

Rahbarlarni tayinlash tanlov asosida amalga oshiriladi:

- davlat ishtirokidagi korxonalarining rahbari va uning o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tanlov asosida amalga oshiriladi, bundan Prezident qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

- davlat organlari va muassasalari, davlat ishtirokidagi korxonalar ma'muriy binolaridan xodimlar uchun belgilangan me'yordan kelib chiqib, samarali foydalanish tartibi joriy etiladi.

QO'SHIMCHA QULAYLIKLAR

2023-yil 1-iyuldan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va dividend siyosatini takomillashtirish maqsadida:


- davlat organlari va muassasalari, davlat ishtirokidagi korxonalar ma'muriy binolaridan xodimlar uchun belgilangan me'yordan kelib chiqib, samarali foydalanish tartibi joriy etiladi.

Xalqimizning og'irini yengil qilish, aholi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va ularning xarajatlarini tejash maqsadida:

- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik qarorlari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalarni berish Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida - 2023-yil 1-iyuldan boshlab, Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida - 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab, respublikaning boshqa hududlarida - 2024-yil 1-yanvardan boshlab elektron shaklga o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralari joriy etishga uch yillik moratoriy o'rnatiladi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi



ISHLAMAYDIGANLARGA HAM SUBSIDIYA BERILADIMI?

– Hech qayerda ishlamayman. Menga ham uy-joy uchun subsidiya ajratiladimi?

Mastura ESHONQULOVA, Jizzax viloyati

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Aholiga ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, subsidiyaga ariza topshirayotgan talabgorning daromadi Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,7 baravaridan kam va 8 baravaridan yuqori bo'lsa subsidiya ajratish rad etiladi. Ya'ni, siz hech qayerda ishlamasangiz va daromadgingiz yetarli darajada bo'lmasa, sizga subsidiya ajratilmaydi.



TA'TIL PULI QACHON BERILISHI KERAK?

– Mehnat ta'tili "otpuska" puli qaysi kuni berilishi kerak?

Kanat ERMATOV, Qo'shrabot tumani

– Mehnat kodeksining 233-moddasiga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tili vaqti uchun haq to'lash jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda, biroq ta'til boshlanguniga qadar oxirgi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Agar ish beruvchi sizga tegishli to'lovlarni amalga oshirishdan bosh tortsa, siz fuqarolik sudiga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat qilishingiz kerak.

QANDAY IMTIYOZLAR BERILGAN?

– O'qiyotgan nogironligi bo'lgan talabalarga, abituriyentlarga qanday imtiyozlar berilgan?

Qobiljon BOTIRALIYEV, Samarqand shahri



– 2023-yil 27-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, 2023/2024 o'quv yilidan "Maxsus pedagogika, defektologiya" yo'nalishida magistratura uchun to'liq davlat granti beriladi. O'qiyotgan nogironligi bo'lgan talabalarga ta'lim jarayonida ko'maklashish uchun uning yaqinlaridan biriga OTMda yonida birga bo'lish uchun sharoit yaratiladi. Joriy yilda Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi va uning hududiy markazlari robotlashtirilgan lokomat majmuasi va boshqa zamonaviy reabilitatsiya uskunalarini bilan ta'minlanadi.




ISHGA KIRISHDA BO'Y O'LCHAMI MUHIMMI?

– Milliy gvardiyaga xizmatga qabul qilinishi uchun nomzodlarga bo'y o'lchamlariga talab mavjudmi?

Maftuna ABDUHAKIMOVA, Oqdaryo tumani

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2020-yil 13-yanvardagi 3210-sonli buyrug'iga ko'ra, erkak jinsidagi nomzodning bo'yi – 178 santimetrdan, ayol jinsidagi nomzodning bo'yi – 170 santimetrdan past bo'lmasligi kerak.



TAVSIYANOMANING AMAL QILISH MUDDATI QANCHA?

– O'qishga kirishim uchun oila va xotin-qizlar bo'limidan tavsiyanoma oldim. Uning amal qilish muddati qancha?

Anora FAXRIYEVA, Samarqand shahri

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan "Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat staji bor, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar davlat oliy ta'lim muassasalariga alohida qabul parametrlari (500 ta kvota) doirasida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi. Bunda talabgor Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomasiga ega bo'lishi kerak. Tavsiyanoma berilgan kundan boshlab 3 yil davomida faqat bir marta oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinishi uchun amal qiladi.

MAST ODAMNING IMZOSI HAQIQIY HISOBLANADIMI?

– Turmush o'rtog'im mast holda ekanidan foydalanib qaynonam uyni sotish bo'yicha shartnomaga qo'l qo'ydirib olibdi. Bu imzo haqiqiy hisoblanadimi?

Gulnoza BAZAROVA, Toyloq tumani

– Fuqarolik kodeksining 121-moddasiga ko'ra, garchi muomalaga layoqatli bo'lsa-da, biroq bitim tuzish vaqtida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatda bo'lgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim shu fuqaroning yoki huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar bunday bitimni tuzish natijasida buzilgan boshqa shaxslarning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Mazkur masala yuzasidan fuqarolik sudiga murojaat qiling.

Malika TOLLIBOYEVA, "Madad" NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi



– Ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodimman. Qonun bo'yicha bizning ta'til 48 ish kunidan iborat. Endi ta'tilimiz qanday hisoblanadi, ish kunidami yoki kalendar kundami? Kadrlar bo'yicha mas'ul xodimimiz kalendar kunlarda ta'til olasiz deyapti, lekin qonunda ish kuni turibdi-ku?

M. DO'STOVA, G'ijduvon shahri

TA'TIL 6 KUNLIK ISH HAFTASIDAN HISOBLANADIMI?



– O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi 2019-yil 29-oktyabrdagi qonunining 15-moddasiga ko'ra davlat ilmiy tashkilotlarida ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarga 48 ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan hamda moddiy yordamni ko'zda tutadigan mehnat ta'tili beriladi. Masalaning qiziq tomoni shundaki, Mehnat kodeksining 221-moddasiga ko'ra, xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi kalendar kunlarda hisoblab chiqariladi. Har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomiyligini belgilashda hisobga olinmaydi. 221-moddaning uchinchi qismiga ko'ra, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi olti kunlik ish haftasi hisobidan kalendar bo'yicha ish kunlarida hisoblab chiqariladi. Demak, ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarga ta'tilni kalendar kunlarda emas, balki 6 kunlik ish haftasi hisobidan kalendar bo'yicha ish kunlarida hisoblab chiqarish zarur.

Ilyos ISMATOV, G'ijduvon tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

SAMARQAND

Oqdaryo tumanidagi 1-sonli kasb-hunar maktabida ombor mudiri vazifasida ishlagan A. Mirzayev noqonuniy ravishda ishdan bo'shatilgani to'g'risida tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. Arizani o'rganish jarayonida kasb-hunar maktabida qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgani aniqlandi.



MUDIR ISHIGA TIKLANDI

Ya'ni u mazkur muassasaga joriy yil boshida 1 stavka ishga qabul qilingan. Ammo 25-aprelda fuqaroning sog'lig'i ro'kach qilinib, o'z arizasiga asosan ishdan ketishi talab qilingan va shu kuniyoq eski tahrirdagi Mehnat kodeksining 99-moddasi qo'llanilgan holda ishdan haydalgan. Muassasa rahbari bu xatti-harakati bilan qo'pol qonunbuzilish holatiga yo'l qo'ygan. Boisi, o'sha paytda amalda bo'lgan eski tahrirdagi Mehnat kodeksining 99-moddasiga asosan xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchini ikki hafta oldin yozma ravishda ogohlantirib, bekor qilishga, ogohlantirish muddati tugagandan so'ng xodim ishini to'xtatishga haqilligi hamda ish beruvchi xodimga mehnat daftarchasini berishi va u bilan hisob-kitob qilishi shartligi belgilangan.

Qolaversa, kasb-hunar maktabi direktori eski tahrirdagi Mehnat kodeksining 108-moddasi talablarini buzgan holda A. Mirzayevni mehnat shartnomasi bekor qilingani haqidagi buyruq bilan tanishtirmagan. Tuman adliya bo'limi murojaatni o'rganib, ta'lim muassasasi rahbari nomiga tegishli taqdimnoma kiritgach, A. Mirzayev o'z ishiga tiklandi.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

QORAQALPOG'ISTON

Beruniy tuman adliya bo'limiga fuqaro S.K. murojaat qilib, tuman sport maktabida metodist lavozimida ishlaganida, ish beruvchi tomonidan uning roziligisiz ish stavkasi kamaytirilganini bildirib, ish stavkasini tiklashda amaliy yordam so'ragan.



METODIST MUROJAATIDAGI MUAMMO HAL ETILDI

Murojaatni o'rganish davomida sport maktabi direktori tomonidan xodim S.K.ning 1 stavka metodist lavozimi uning roziligisiz oldin 0,75 stavkaga, keyinchalik esa 0,5 stavkaga kamaytirilgani, bu bilan xodim 15 million 500 ming 529 so'm ish haqidagi g'ayriqonuniy ravishda mahrum bo'lgani aniqlandi.

2023-yilning 30-apreliga qadar amalda bo'lgan Mehnat kodeksining 187-moddasida o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgani natijasida xodimga yetkazilgan har qanday zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) ish beruvchi, bosharti ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, to'liq hajmda to'lashi, 188-moddasida xodim mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan barcha hollarda ololmay qolgan ish haqini ish beruvchi unga to'lashi shartligi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro S.K.ning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning 2023-yil 18-maydagi hal qiluv qarori bilan xodimning ish stavkasi tiklanib, uning foydasiga 15 million 500 ming 529 so'm ish haqi va ma'naviy zarar uchun 3 million so'm pul mablag'i undirilishi belgilandi.

Vahob TURANIYAZOV,
Beruniy tuman adliya bo'limi
yetakchi maslahatchisi

BUXORO

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan "Inson huquqlari oliy qadriyat" huquqiy aksiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-maydagi "Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan o'rganish va monitoringlar o'tkazildi.



INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINING BOSH MEZONIDIR

Bunda asosiy e'tibor kelib tushgan murojaatlarni hal etishga qaratildi. Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining yuqoridagi farmonining 2-bandiga binoan, yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 (bir) million so'mgacha maxsus oylik ustamalar to'lanishi lozim. Ammo o'rganishlar natijasida tibbiyot birlashmalari va muassasalari tomonidan yosh shifokorlarga bunday ustamalar to'lanmagani aniqlandi.

Shu bois adliya organlari tomonidan mazkur qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma va da'vo arizalari kiritildi. Natijada 169 nafar salohiyatli yosh shifokorlarga 688 million so'm miqdoridagi ustamalar to'lab berilishi ta'minlandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

QORAQALPOG'ISTON

ISHGA QAYTISHNI SO'RAGAN XODIMNING ARIZASI KO'RIB CHIQLMAGAN



To'rtko'l tuman tibbiyot birlashmasida faoliyat yurituvchi I.X. bola parvarishi ta'tilidan o'z ishiga qaytishni so'rab rahbariyatga murojaat qilgan. Biroq uning arizasi o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro tuman adliya bo'limidan amaliy yordam so'ragan.

Murojaatni o'rganish davomida xodim haqiqatan ham tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'ining 2019-yil avgust oyidagi buyrug'i bilan patronaj hamshirasi lavozimiga ishga qabul qilingani, 2022-yil avgust oyida tegishli buyruq bilan bola parvarishi ta'tiliga chiqarilgani, 2023-yil may oyida ishga qaytish uchun ariza yozgani aniqlandi.

Mehnati kodeksining 405-moddasida, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili berilishi, bolani parvarishlash ta'tili davrida xodimning ish joyi saqlanishi mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 28-moddasida, ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart

bo'lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, deb belgilangan.

Biroq, xodimning ishga tushish uchun bergan arizasi oradan bir oy muddat o'tgan bo'lsa-da, tegishli tartibda ko'rib chiqilmagan va mehnat huquqlari qo'pol ravishda buzilgan.

Mazkur holat yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi mas'ul xodimlarining ma'muriy javobgarlik masalasini hal qilish yuzasidan taklif kiritildi. Shuningdek, xodimning buzilgan mehnat huquqi tiklandi.

Nursulton SAPARBOYEV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yetakchi
maslahatchisi



Hech kimga sir emas, keyingi paytlarda "yulduz"lar ko'paydi. Qo'shiq biznesi chunonam avjiga chiqdi. Sahnalarni to'ldirgan yoshlarni sanab, sanog'iga yetish qiyin. Yosh xonandalarning albomlaridan joy olayotgan, internet tarmoqlarini bosib ketgan maza, bemaza qo'shiqlar haqida hech kim gapirmay qo'ydi. Demak, biz ularga ko'nikayapmiz. Shunday saviyasiz qo'shiqlarni hazm qilayapmiz. Hatto sevib tinglayapmiz. Talabimiz, saviyamiz, darajamiz ham anchayin pasayib bormoqda.




MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI E'TIBORIGA

XONANDANING MUXLISLARGA KIYIM ULOQTIRISHI

madaniyatdanmi?

Bugungi aksariyat o'ta "zamonaviy" qo'shiqlarni eshitishga hamma ham ishqiboz emas. Qo'shiq matni daranglagan musiqalar ostida qolib ketadigan qo'shiqlarni eshitgan bilan biror ma'no topa olmay-siz. Afsuski, bugun ana shunday qo'shiqlar trendda.

Muxlislar Hamdam Sobirov ism-sharifli yangi qo'shiqchining (men uchun yangi bo'lishi mumkindir) qo'shiqlarini ko'proq tinglayotganlariga guvohmiz. U ko'pchilikning sevimli xonandasi-ga aylanganini transportdagi, jamoat joylaridami, yo'ldami, cho'ldami, hamma joyda eshi-



tilayotgani bilan izohlaydigan bo'lsak, muxlislarga manzurligi aniq. Yaqinda uning yangi albomidagi qo'shiqlarini ko'rishga to'g'ri keldi. Yurtdoshimizning hashamatli konsert zalida qo'shiq kuyilishi aslida faxrlanishga loyiq deyayotgandirsiz. Bilmadim. Hammaning didi har xil. Sahna ham hammaniki. "Tentakcham", "Maktabimda", "Qora atirgul", "Yaxshi ko'rsam nima qilay", "Kapalagim" xullas, shunga o'xshash qo'shiqlar bugun ko'pchilikning tilida. "Sochingni kesma, labingni bo'yama..." qizlarga nasihat tarzidagi jaydari qo'shiqning matni boshidanoq odamning g'ashiga tegadi. Bugun qo'shiqlarning saviyasi, so'zi, almoyi kliplar, xonandaning imidji haqida fikr yuritmoqchi emasmiz! Bu alohida mavzu.

Bugun xonanda Hamdam Sobirovning sahnada o'zini tutishi, konsert zalida muxlislarga munosabati haqida ikki og'iz gapimiz bor. Avvallari sovg'a qilgan gullarini yerga qo'ysa xonandadan dili ranjiydigan muxlislar bugun xonandaning eski kiyimlarini

sahnadan turib tomoshabinlarning yuziga uloqtirsa, o'rnidan turib qiyqiriqlar bilan tutib olishiga hayratlandik. Bu nima – muxlislarga sadaqami, xayr-ehsonmi?! O'z kiyimlarini kiyim ilgichi bilan tomoshabinlar o'tirgan zalga uloqtirayotgan xonandaning "sadaqa"sini otasi, onasi tengi odamlarning ilib olib, kiyib raqsga tushishini hazm qilish esq undan ham qiyin.

Biz qachon bunday ahvolga tushdik?!

Bir vaqtlar Madaniyat vazirligi huzuridagi "O'zbeknavo" estrada birlashmasida qo'shiqlarning matni, musiqasi, xonandaning kiyinishini nazorat qiladigan Badiiy kengash bo'lardi. Adashmasam, bugun ham bor. Ammo ular bugun nima bilan shug'ullanayotganini bilmadik.

Balki o'sha lavhalarni ko'rib, ko'rmaslikka olgan Badiiy kengash a'zolarining bizga aytadigan gap, beradigan javobi bordir?

Madaniyat va turizm vazirligidagi mas'ullar nima deydi?!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

6 SUD ZALIDAN

Keyingi paytlarda odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati insoniylik chegarasidan, mehr-shafqat doirasidan chiqib ketdi. Inson bir-biriga yomonlik, yovuzlik qilish borasida hatto eng yirtqich hayvondan ham o'tadigan darajaga yetdi. Bu fikrni jamiyatimizda tez-tez sodir bo'layotgan ko'z ko'rib, quloq eshitmaydigan darajadagi razilliklar isbotlab turibdi.

NAFS QURBONLARI



Jinoyat ishlari bo'yicha Marg'ilon shahar sudida ana shunday shafqatsiz odamlarning qurboniga aylangan begunoh ayol fojiasi haqidagi jinoyat ishi ko'rib chiqildi.

Hali 25 yoshga ham kirib ulgurmagani yigitlarning bunchalik yovuzligi, mudhish jinoyatga qo'l urishi, pul uchun odam o'ldirishi aqlga sig'maydi. Bir shaharda, bir ko'chada yashovchi tengdoshlar biror foydali ishning boshini ushlab o'rni, tekin boylik orttirish uchun bir insonning hayotiga zomin bo'lgani jamiyatning bitmas jarohati aslida.

Fojia tafsiloti esa quyidagicha:

Sudlanuvchi Xayrulla Sobirov jinoiy sheri Qodir Xalilov (ism-shariflar o'zgartirilgan) bilan tanishlari Manzura Po'latovaning yangi uy sotib olmoqchi ekani va yonida 4 ming 200 AQSh dollari borligidan Xayrullaning shar'iy nikohdagi xotini Musallam orqali xabar topgan. Uy olish uchun yana 400 dollar yetmayotganidan erkaklarni xabardor qilgan ham ana shu Musallam. Bu ma'lumotlardan xabar topgach, ular Manzurani o'ldirish va tamagirlik yo'li bilan uning pullarini egallash haqida oldindan til biriktirib, jinoiy reja tuzishadi.

Firibgarlar o'zlarining jinoiy rejasini amalga oshirish uchun M. Po'latovaga uy olishi uchun

yetmayotgan 400 AQSh dollarini bir tanishidan foizga topib berishini aytib, uni Marg'ilon shahridagi "Ijodkorlar bog'i" yoniga chaqirib, M. Po'latovaga pul beradigan tanishlari Farg'ona tumani "Satkak" mahallasi hududida yashashini aytib, "Damas" avtomashinasida yo'lga tushishadi. Odamlar yo'q joyga yetib kelgan chog'da Xayrulla mashinani to'xtatib, oldindan tayyorlab qo'yilgan arqonni Manzuraning bo'yniga sirtmoq sifatida solib, Qodir yordamida uni bo'g'ib o'ldiradi. O'z qilmishining oqibatini o'ylamagan bosqinchilar ayolning yonida bo'lgan 4 ming 200 AQSh dollarini olib, Qo'shtepa tumani hududiga kelib, jinoyat izlarini yashirish maqsadida murdani ushbu hududdan oqib o'tgan "Katta Farg'ona kanali"ga tashlab yuborishadi.

Ikki qonxo'r Marg'ilon shahriga qaytib, bosqinchilik yo'li bilan egallagan pullarni teng bo'lishib, ularni o'zlarining ehtiyojlari uchun ishlatib yuborishadi.

Jinoyatga jazo muqarrar. Sud tomonidan X. Sobirov hamda Q. Xalilovlarga 17 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Bir begunoh ayolning umriga zomin bo'lgan bu qilmishi qora nafs qurbonlari qilmishiga yara-sha jazo oldi.

Akrom ARIPOV,
Oliy sud bosh konsultanti

Afsuski, so'nggi paytlarda tovlamachilik jinoyati tez-tez sodir bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali bunga guvoh bo'layapmiz. Qo'qonlik Javlonbek Karimjonov (ism-shariflari o'zgartirilgan) ham tovlamachilikka qo'l urdi.



Tovlamachi BLOGER

JAZOGA TORTILDI

Gap shundaki, u ijtimoiy tarmoqning "Facebook" messenjeridagi "QO'QONJONIM" nomli guruhga rahbarlik qilib kelgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayrim fuqarolar o'zlarining muammolari yuzasidan unga murojaat etib turgan.

Jumladan, o'tgan yilning dekabr oyida tengdoshi Muhammadmirzo Mamarajabov Javlonbekning oldiga kelib, shahar hokimligining sobiq

bosh mutaxassisi Rasuljon Avezovning xatti-harakatlaridan shikoyat qiladi. Ma'lum bo'lishicha, M. Mamarajabov 2022-yilning o'rtalarida R. Avezov bilan shahardagi 3 ta avtobus bekatiga yengil tipdagi savdo do'koni qurish va buning evaziga bekatni ta'mirlab berishga ruxsat olish masalasida maslahatlashadi. Natijada Rasuljon bekatlarda amalga oshiriladigan qurilish ishlari yuzasidan Qo'qon shahar

hokimligi va M. Mamarajabov o'rtasida imzolangan ijara shartnomalarini tayyorlab beradi. Shu bois Muhammadmirzo uchta bekatda temir profildan yengil tipdagi savdo do'konlarini quradi. Ammo keyinchalik o'sha savdo do'konlari shahar hokimligi tomonidan buzdirib tashlanadi. Negaki, shartnomada nazarda tutilgan bekatlar Qo'qon shahar obodonlashtirish boshqarmasi hamda shahar yo'l qurilish boshqarmasiga tegishli bo'lib chiqadi. Ya'ni shahar hokimligi mazkur bekatlar bo'yicha ijara shartnomasini imzolash vakolatiga ega emasligi ayon bo'ladi.

Shundan so'ng M. Mamarajabov R. Avezovdan savdo do'konlarini qurish uchun sarflagan 1000 AQSh dollari pulini berishni talab qiladi. Biroq Rasuljon uning talabiga ko'nmaydi. Binobarin, Muhammadmirzo pulini undirish yuzasidan Javlonbek Karimjonovga murojaat etadi.

Albatta, J. Karimjonov mazkur holat yuzasidan surishtiruv o'tkazadi. Qolaversa, voqea tafsilotlarini bo'rttirib va R. Avezovning shaxsiy profilidagi suratlaridan uning ruxsatisiz foydalangan holda "QO'QONJONIM" guruhida tanqidiy maqola e'lon qiladi. Oqibatda xash-pash deguncha ushbu holat bo'yicha shaharda shov-shuv ko'tariladi. Rasuljonning hamkasblari oldidagi obro'siga ham putur yetadi. Binobarin, u blogerga uchrashib, postni o'chirib tashlashni iltimos qiladi. Lekin Javlonbek buning evaziga 500 AQSh dollari talab qiladi.

– Hozir menda buncha pul yo'q, to'g'ri tushuning, – deya R. Avezov unga 100 AQSh dollari beradi.

– Biz siz bilan bunchaga kelishma-


ganmiz. Bundan tashqari, navbatdagi maqolani ham tayyorlab qo'yganman, – deydi blogger hali e'lon qilinmagan ikkinchi maqolani telefonidan ochib ko'rsatib.

U shunday deb Rasuljonni sharmanda qilish bilan qo'rqitib, yana 500 AQSh dollari talab qiladi. Noiloj qolgan sobiq bosh mutaxassis esa bunga rozi bo'ladi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ham murojaat qiladi. Pirovardida tovlamachi "qahramon"imiz shaharning "Bo'bochinor" ko'chasida tanishi Maftuna Sharipova orqali R. Avezovdan 400 AQSh dollari va 1 million 100 ming so'm naqd pulni olgan vaqtida IIB tezkor xodimlari tomonidan ushlandi.

Tabiiyki, shundan keyin Javlonbek Karimjonovga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Buni qarangi, sud majlisida J. Karimjonov o'z qilmishini xasposhlashga urindi. Ya'ni Rasuljondan yuqoridagi pullarni M. Mamarajabovga yetkazilgan zarar sifatida olganini aytdi. Ammo Javlonbek tezkor xodimlarni ko'rgach, pullarni mashinada birga ketayotgan tanishi M. Sharipovaga berib qo'ygan hamda mashinadan tushib, mahalla ichiga kirib ketishini tayinlagani uning bu vajini inkor etdi. Shuningdek, ularning o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat stenogrammasi va yuzlashtirish bayonnomasi ham tovlamachining aybini isbotladi. Binobarin, jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi uni Jinoyat kodeksining 165-moddasi birinchi qismi bilan aybdor deb topib, qonuniy jazoga mahkum etdi.

Mashrabjon ULUG'BEKOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi sudyasi



Jinoyatni ochishda hayvonlar DNKsining ahamiyati

O'tgan asrning oxirida inson hayotiga kirib kelgan genetik texnologiyalar dunyomizni shunchalik o'zgartirdi, endilikda dunyoni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu albatta, kriminologiyani ham chetlab o'tmadi, bu yerda yillar davomida genetik identifikatsiya laboratoriyadan chiqmasdan jinoyatchilarni topish va ularning qilmishlarini ochish imkonini beruvchi tez va nisbatan arzon usul sifatida ishlatilib kelmoqda.



Jinoyat joyida olingan biologik namunalarning genetik tahlilini o'tkazish tergovchilar ishini ancha soddalashtirdi. Ular jinoyatchini yoki uning qurbonini aniqlashga, shubhasiz dalillarni olishga va jinoyatlarni ochishga imkon beradigan ishonchli vositani qo'lga kiritdilar.

Genetik daktiloskopiyaning asosiy afzalliklari – bu oz miqdordagi biologik material bilan ham ishlash orqali odamni identifikatsiya qilishga imkon beradigan yuqori aniqlikka ega usul ekanligidir. Tahlil uchun barcha talablarga, shu jumladan takroriy tajribalarga rioya qilingan holda olib borilishini inobatga olsak, bunday tadqiqotlarning ishonchilligi 99 foizdan oshadi. Ushbu yondashuv jinoyatlarni tergov qilishda eng muhimlaridan biriga aylandi.

Insonni identifikatsiya qilishdan tashqari, DNK daktiloskopiya kriminalistik tadqiqotlarining boshqa ko'plab jihatlari ham qo'llaniladi. Bularga hayvon turlarini, o'simliklarni va hatto mikroorganizmlarni aniqlash kiradi.

Sud amaliyotidagi eng muhim jihatlardan biriga turlarni aniqlashni kiritish mumkin. Ba'zi hollarda DNK daktiloskopiya brakonerlik yoki yo'qolib borayotgan turlar savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda qo'llaniladi. Bundan tashqari, u oziq-ovqat sanoatidagi yirik firibgarlik sxemalarini tekshirishda, masalan, go'sht yoki baliq mahsulotlarida mavjud bo'lgan turlarni baholash uchun ishlatiladi. Pulni tejash uchun ba'zi ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlariga arzonroq go'sht, baliq turlarini qo'shishlari mumkin yoki hayvon oqsillarini o'simlik oqsillari bilan almashtirishlari ham mumkin bo'ladi. Bunday holatlarda, albatta, hayvonlar yoki ularning mahsulotlari DNK tahlili haqiqatni aniqlashda yordam beruvchi asosiy vositaga aylanib qolishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joylarda insonga tegishli bo'lmagan ashyolar ham tergov jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Ma'lumki, hayvonlar DNKsi bo'yicha tahlillar inson genomini aniqlash bilan bog'liq ilmiy izlanishlar bilan parallel ravishda rivojlanib kelgan.

Odamlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi uy hayvonlari insonning jinoiy faoliyati bilan potensial aloqasi tufayli dastlabki tahlil uchun alohida qiziqish uyg'otdi. 1987-yilda Alek Jeffri inson DNK genotipi bo'yicha ilmiy ishini itlar va mushuklarga oddiy takrorlanadigan ketma-ketliklardan iborat autosomal polimorfik bo'laklarni aniqlash orqali kengaytirdi.

1995-yilda AQSh sud ishida birinchi bor uy mushugini identifikatsiya qilish uchun mikrosatelit markerlarining xarakteristikasi orqali hayvonlarning DNK ma'lumotlaridan foydalangan.

Shunga o'xshash hayvonlar DNKsida tergov jarayonida foydalanilganlikning bir qancha holatlari mavjud.

Misol uchun, Kanadada shahzoda Eduar orolida sodir etilgan qotillik bo'yicha tergov paytida jinoyat joyida jabrlanuvchining qoni bilan bo'yalgan charm ko'ylagi topildi. Politsiyada asosiy gumondorni (marhumaning sobiq eri) charm ko'ylak bilan bog'laydigan dalillar yo'q edi. Biroq, ko'ylagi ustida g'ayriinsoniy oq sochlarning ko'plab tolalari topilgan. DNK ushbu oq tolalar nafaqat mushukdan, balki gumon qilinuvchi bilan birga yashagan ma'lum bir mushukdan ham kelib chiqqanligini aniqladi. Dalillar gumonlanuvchi, kurtka va qotillik qurboni o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlashga va gumonlanuvchini sud qilishga yordam bergan.

Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar bir nechta uy hayvonlari turlarining butun

genomlarini tavsiflashmoqda. Qoramol va boshqa ko'plab hayvonlarning genomini o'rganish bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar ham mavjud. Bundan tashqari, populyatsiyani o'rganish, kelib chiqishini tahlil qilish, ro'yxatga olish ma'lumotlar bazalari va kriminologiyada noyob identifikatsiya qilish uchun mos bo'lgan STR lokuslari hozirda ko'plab hayvonlar, jumladan itlar, mushuklar, otlar, erkak mushuklar, bug'u va kiyiklar va boshqa tur hayvonlarni o'rganilgani bo'yicha xabarlar mavjud.

Ushbu tadqiqotlar inson va boshqa hayvonlarning genom xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash uchun asos yaratadi.

Bu kabi izlanishlarning kengayishi albatta kelgusida jinoyatlarni tergov qilishda aniq dalillarni to'plashga hamda tergov harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu turdagi tekshiruvlarni respublikamizda ham joriy qilish maqsadida ayni vaqtda X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida hayvonlar DNKsi bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarini joriy qilish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, odamni identifikatsiya qilishda DNK tadqiqoti uchun odamning qon, sperma yoki epiteliya namunalari olinadi. Ushbu manbalarga qo'shimcha ravishda hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun yanada noyob manbalardan, shu jumladan taksidermiya namunalari, najas, qayta ishlangan mahsulotlardan (masalan, teri yoki go'sht mahsulotlari) va ehtimol an'anaviy tarkibiy qismlar sifatida olish mumkin.

Biologik namunalarni to'g'ri yig'ilgandan va ulardan DNK ajratilgandan so'ng, hayvonning noyob identifikatsiyasi uchun har bir turga xos bo'lgan maxsus zondlar yoki praymerlardan foydalanish maqbuldir. Biroq, alohida turlar uchun markerlarning rivojlanishi ko'p vaqt va xarajatlarni talab qiladi.

Niyyora SAITOVA,

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining sud-tibbiy, psixiatriya, psixologik va biologik ekspertizalari ilmiy tadqiqot bo'limi boshlig'i

E'LOMLAR

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 22-iyundagi 6-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pirmatov Asror Askaraliyevichga (litsenziya KS 0010, 2020-yil 23-aprel) viloyat adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 26-iyun kundan 2023-yilning 26-iyun kunga qadar to'xtatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrda qaratilgan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizom hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 197-um-sonli buyrug'iga asosan Beknazarov Tulkin Ne'matovichga 2022-yil 5-oktabrda berilgan TN 002306-sonli, Dehkonboyev Xurshed Mirzattuloyevichga 2023-yil 27-aprelda

berilgan L-7066241-sonli, Burnasheva Mariya Vilevnaga 2018-yil 25-dekabrda berilgan TN 000107-sonli advokatlik litsenziyasining amal qilishi tugatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrda qaratilgan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizom hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasining 2023-yil 19-iyundagi 197-um-sonli buyrug'iga asosan Qaimov Jamshid Namozovichga 2019-yil 28-yanvarda berilgan TN 001308-sonli advokatlik litsenziyasi 2023-yil 5-iyundan 1 (bir) oyga, Davutov Ruzijon Karimovichga 2021-yil 23-dekabrda berilgan TN 002101-sonli advokatlik litsenziyasi 2023-yil 19-may-

dan 15 (o'n besh) kunga, Erallyev Axrorbek Dilshodbekovichga 2021-yil 20-sentabrda berilgan TN 002021-sonli advokatlik litsenziyasi 2023-yil 29-maydan 15 (o'n besh) kunga, Salixov Aziz Alisherovichga 2022-yil 24-fevralda berilgan TN 002130-sonli advokatlik litsenziyasi sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi qaror qabul qililguniga qadar to'xtatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 23-iyundagi 114-um-sonli buyrug'iga asosan, advokat Ravshanov Abdulla Begaliyevich ixtisosligi o'zgariganligi munosabati bilan unga 182-sonli yangi advokatlik guvohnomasi berildi.

8 ADABIY AYVON

TAROZI

Bir kuni faqirona kiyingan, ma'yus bir ayol sabzavot do'koniga kirdi. Do'kon sohibiga tortinibgina yaqin bordi va eri og'ir xastalik tufayli biror ishga yaramay, to'shakka yotib qolgan, yetti bolasi borligi, ularning o'chlik azobidan qiyinalayotganini aytdi.

Sotuvchi unga ters qarab:

– Ey, tilanchi xotin, darhol do'konni tark et! – dedi.

Ayol esa bolalarining yemak yeyishga ehtiyojini aytib yolvorgancha:

– Iltimos, janob, bolalarimni qornini to'ydirib, odamlarning eshigiga ishlagani jo'nataman. Ular pul olib kelgan zahoti qarzingizni qaytaraman, – dedi.

Do'kondor ayolning iltijolariga parvo qilmay, uni tanimasligi, doimiy xaridorlaridan emasligini aytib iltimosini rad etdi.

Shu payt do'kon tashqarisida turgan bir mijoz sotuvchi bilan ayol o'rtasida bo'layotgan suhbatni eshitib qoldi va ichkariga kirib do'kondorga:

– Bu ayolga so'ragan narsalarini ber, men kafil bo'laman, qarzini qaytaradi, – dedi.

Uning gapiga ko'ra sotuvchi ayolga qaradi-da, istamaygina:

– Oladigan narsalarini ro'yxat qilganmisan? – deya so'radi.

Ayol tasdiq ma'nosini berib bosh irg'adi.

– Unday bo'lsa uni tarozining bir pallasiga qo'y-da, ikkinchi pallasiga o'zing oladigan narsalarni qo'y. Ro'yxat qog'ozingni vazniga teng narsalarni bera-man, – dedi.

Ayol bir muddat turdi-da, boshini quyi egib cho'poning cho'ntagidan bir qog'oz parchasini olib

Ibratli voqea

tarozining bir pallasiga qo'ydi.

Shu payt do'kondor va kafil mijozning ko'zlari hayratdan katta-katta ochildi.

Tarozining tosh qo'yiladigan pallasiga qog'oz parchasining og'irligidan cho'kib ketgandi.

Do'kondor kafil mijozga qarab ezg'in tovushda:

– Ishonmayman... Bu ishoniladigan holat emas... – dedi.

Tarozining mahsulot qo'yiladigan pallasiga kera-gidan-ortiq narsalar bilan to'ldi.

Do'kondor va'daga binoan ayol olgan hamma yeguliklarni xaltaga joylab, qo'lga tutqazdi.

Zudlik bilan nimalardir yozilgan qog'ozni qo'lga oldi-da, o'qidi.

Unda xarid qilinadigan mahsulotlar ro'yxati emas, quyidagi so'zlar yozilgandi:

“Allohim! Nimaga ehtiyojim borligini yolg'iz O'zing bilasan. Shuning uchun o'zimni Senga taslim etaman. O'zingga tavakkal, O'zing omonat bergan bolalarimning rizqini yetkaz!”

Do'kondor tosh kabi qotdi-qoldi.


Ayol unga tashakkur aytib, do'kondan chiqdi.

Ayolning xaridiga kafillik qilgan mijoz bir dasta pulni do'kondorga berib, “qaytimi kerak emas” dedi. Mijoz do'kondan chiqib ketayotib tarozi pallasining singaniga ko'zi tushdi.

Nima sababdan tarozi pallasiga singani va duoning kuchi naqadar zalvorli ekani yolg'iz Allohgapina ma'lum edi...

Mohigul NAZAROVA

23 yoshli, oyoqlari tug'ma shol, 23 yil nogironlar aravachasida yurgan bir yigit qabulimga keldi. Orqasiga yiringli yara toshgan ekan. Yaralariga igna yordamida dori qo'ydim, bir tarafdan esa kesib, yiringini tozalayapman. O'zimcha bu yosh yigitni da'vat qilgim keldi. Hech siqilish, alamzadalik, holidan shikoyati yo'q. Juda ham hushchaqchaq yigit edi.



DOKTOR SOLIH SALMON AYTIB BERGAN VOQEA:

– Sen tug'ma sholmisan? – dedim.

– Ha, – dedi.

– Demak hech yurmading, yugurmading, o'ynay olmading shundaymi? – dedim.

Yigit savolimni eshitmaganga oldi. Men ham bo'sh kelmadim. Bu safar mo'ljalni aniq oldim.

– Hamma arzimagan narsalar uchun qattiq asabiy-lashadi, masalan, telefonim eski, buzuq deydi. Erim bilan tortishdik, xotinim arazlayveradi, narxlar qimmat deydi. Bolam yig'loq deydi. Pulim yo'q deydi. Ishlarim yurish-mayapti deydi. Xullas, bo'lar-bo'lmas narsalarni dard hisoblaydi. Sen esa shuncha darding bilan hech narsa demayapsan, – deb gapimni tugatmasimdan, yigit:

“Men ketishni xohlayman, dori qo'yishni to'xtating”, – deya xonamdan chiqib keta boshladi.

Men yana bo'sh kelmadim. Sababini so'radim.

Shunda yigit meni lol qoldirib, yiqitgan javobni berdi:

– Sen Robbim bilan oramni buzishga harakat qilyapsan.

Meni butun ne'matlarga ko'mgan Robbim faqatgina oyoqlar bermadi.

Va bu bilan meni imtihon qilyapti. Men aqlimni tanigan kunim Robbimga so'z berganman. Robbimdan hech kimga shikoyat qilmayman. Uni taqdirini ayblamayman deb. Sabrim evaziga jannatini beradigan Zotdan senga shikoyat qilmayman, – dedi.


Besh mingta jarrohlik amaliyoti o'tkazdim. Biror marta pichoq yoki qaychim qo'lmdan tushib ketmadi. Ammo bu yigitning gapidan so'ng qo'lmdagi asboblardan yer bilan bir bo'ldi. Birinchi marta kasal emas, hayajondan men titrayotgan edim. Bu safar yordamga muhtoj xasta men edim.

Shundan keyin qachon dunyo tashvishlari mahzun qilsa, siqilsam, asablarim o'zimga bo'ysunmasa unga shunday deyman. “Tug'ma shol, o'sha holidan ham Robbidan shikoyat qilgani hayo qiladigan yigit esingdami, ana unda sen ham dardlar, sinovlar evaziga jannatni beradigan, Jannat egasidan shikoyatchi bo'lma!”

Meni ko'zimga bechora ko'ringan, nasihat qilaman, Allohni eslataman, deb bel bog'lagan bemorimdan bir umrlik nasihatni, unutilmas darsni olganman.

Asl bechora, nochor o'zim ekanman...

Mirobod tumanidagi 154-umumta'lim maktabida “Yosh qutqaruvchi” musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda tumanidagi 154 va 83-sonli umumta'lim maktablarining “Yosh qutqaruvchi” klublari a'zolari o'zaro kuch sinashdi.



vaziyatlar bo'lib turadi. Faqat har doim bunday hodisalarga shay turish zarur. Fuqarolarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirib borish esa zim-mamizga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan, “Yosh qutqaruvchi” musobaqasi o'quvchi yoshlarni zilzila va tabiiy ofatlar yuz berganda to'g'ri harakatlantirishga, ularni hamisha hushyor bo'lishga o'rgatadi.

Ishtirokchilar uchun juda qiziqarli va esda qolarli tarzda o'tgan musobaqada 154-maktabning yosh qutqaruvchilari g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Tadbir yakunida ularga tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Jasurbek EGAMNAZAROV,
Mirobod tumani FVB P va NB
mutaxassisi, oddiy askar

Har ikkala maktabning o'qituvchi va o'quvchilari, ot-onalar hamda hudud aholisi ishtirok etgan mazkur musobaqa Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti, Toshkent shahar Hayot faoliyati xavfsizligini o'qitish markazi, Mirobod tuman FVB hamda UNICEF tashkiloti bilan

hamkorlikdagi “Zilzilalar va tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo'lgan hududlarda favqulodda vaziyatlarda shaylikni oshirish va ularda harakatlanish bo'yicha milliy va mahalliy salohiyatlarini mustahkamlash” loyihasi doirasida tashkil etildi.

Albatta, inson hayotida turli tabiiy ofatlar va favqulodda

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

“Adolat” milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojibev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Bosh
muharrir

Asiddin
ALIMARDON

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mayze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3694
Buyurtma – 1918

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shotko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5